

# **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

## **JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O‘ZBEK TA’LIMI RIVOJIGA TA’SIRI**

**Daminova Go'zal Vaydulla qizi**

*Qashqadaryo viloyati Shahrisabz davlat pedagogika instituti,*

*Pedagogika fakulteti, 2-bosqich 2-23-guruh talabasi.*

*Tel: (+998881780797)*

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining kelib chiqish sabablari, asosiy tamoyillari hamda ta’lim tizimiga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Jadidlar milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, madaniy yangilanish va zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish yo‘lida muhim islohotlarni amalga oshirganlar. Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Ismoilbek G‘aspirali kabi ziyoililarning faoliyati tahlil qilinar ekan, ularning pedagogik qarashlari, zamonaviylikka intilishi va xalqni ilm-fan orqali taraqqiyotga yetaklash g‘oyalari asosida hozirgi ta’lim tizimiga bo‘lgan ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, maqolada jadidchilik merosining bugungi O‘zbekiston ta’limi bilan bog‘liqligi va uni rivojlantiri shdagagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Jadidchilik, ta’lim islohoti, Ismoilbek G‘aspirali, Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, ma’rifat, pedagogika, milliy uyg‘onish, zamonaviylik.*

**Аннотация** В данной статье рассматриваются причины возникновения джадидистского движения в Центральной Азии в конце XIX — начале XX веков, его основные принципы и влияние на систему образования. Джадиды провели значительные реформы в области национального возрождения, просвещения, культурного обновления и формирования современной образовательной системы. В статье анализируются деятельность таких интеллектуалов, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони и Исаилбек Гаспринский, их педагогические взгляды, стремление к современности и идеи о ведении нации к прогрессу через науку и образование. Кроме того, в статье показана связь наследия джадидистского движения с нынешней системой образования Узбекистана и его значение для развития образования сегодня.

**Ключевые слова:** *Джадидизм, реформа образования, Исаилбек Гаспринский, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, просвещение, педагогика, национальное возрождение, современность.*

**Annotation** *This article discusses the causes of the emergence of the Jadid movement in Central Asia at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries, its key principles, and its impact on the education system. The Jadids carried out significant reforms in the name of national revival, enlightenment, cultural renewal, and the formation of a modern education*

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

system. Analyzing the activities of intellectuals such as Mahmudkhodja Behbudi, Abdulla Avloni, and Ismailbek Gaspirali, the article highlights their pedagogical views, their aspiration for modernity, and their ideas of leading the nation to progress through science and education. Furthermore, the article reveals the connection between the legacy of the Jadid movement and the current education system of Uzbekistan, as well as its significance in the development of education today.

**Keywords:** Jadidism, education reform, Ismailbek Gaspirali, Mahmudkhodja Behbudi, Abdulla Avloni, enlightenment, pedagogy, national revival, modernity.

### **KIRISH**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati — o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishida, tafakkurini yangilashda, ilmiy ongini shakllantirishda burilish yasagan muhim bosqichlardan biridir. "Jadid" so‘zi arab tilida "yangi" degan ma’noni bildiradi. Jadidlar "usuli qadim" – eski uslubdagi diniy ta’limga qarshi, "usuli jadid" – yangi uslubdagi ta’lim tarafdori bo‘lishgan. Bu g‘oya dastlab Ismoilbek G‘aspirinskiy tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u: "Muallimga ishoning, u xalqni qutqaradi. Ta’limsiz millat – kelajaksiz millatdir," degan edi. Bu harakat asrlar davomida shakllanib kelgan an’anaviy, diniy asosdagi ta’lim tizimining jamiyat ehtiyojlariga javob bermasligini anglagan ilg‘or ziyorolar tomonidan boshlandi. Ular xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning yagona yo‘li — bu ilm va ma’rifat ekanini anglab, turmush tarzidan tortib, ta’limgacha bo‘lgan barcha sohalarda yangilanishni targ‘ib qilishdi.

Jadidlar harakati Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi norasmiy kurash shakli bo‘lib, siyosiy emas, madaniy-ma’rifiy yo‘nalishda amalga oshirilgan edi. Ular jamiyat hayotida yuzaga kelgan inqirozni tafakkur inqirozi deb bildilar va unga qarshi ma’rifat quroli bilan kurashdilar. Bu harakatning yetakchilari — Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Ismoilbek G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon singari ziyorolar edi. Ularning har biri o‘zining pedagogik, adabiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati orqali xalq tafakkurini uyg‘otishga xizmat qilgan.

### **ASOSIY QISM**

XIX asr oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga kirganidan so‘ng, bu hududda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar tubdan o‘zgara boshladи. Mustamlakachilik siyosati mahalliy xalqning turmush tarziga, madaniyatiga va eng muhimi — ta’lim tizimiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. An’anaviy madrasalar asosan diniy fanlarga tayanib, zamonaviy fanlar, hisob, geografiya, fizika kabi sohalarni e’tiborsiz qoldirgan edi. Bu esa xalqni zamonaviy tafakkurdan, ilm-fan yutuqlaridan chetda qoldirdi. Shunday sharoitda xalqni jaholatdan qutqarish, ilm va tafakkur orqali taraqqiyotga yetaklash zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu vazifani o‘z zimmasiga jadid ziyorilari oldilar. Ular madaniy-ma’rifiy harakat orqali jamiyatni uyg‘otishni, yangicha dunyoqarashni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydilar. Jadidchilik

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

harakati ayni shu tarixiy ehtiyojdan kelib chiqqan bo‘lib, u milliy uyg‘onish jarayonining tayanchiga aylandi. Jadidchilik harakati keng qamrovli bo‘lib, uning yetakchi namoyandalari orasida Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Ismoilbek G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ziylolar bor edi. Ularning har biri o‘z faoliyati orqali jadidchilik g‘oyalalarini amaliyotga tatbiq etdi.

Ismoilbek G‘aspirali (1851–1914) — jadidchilik harakatining asoschisi va eng mashhur arboblaridan biridir. G‘aspirali turkiy xalqlar uchun yangi ta’lim tizimini taklif qilgan, ayniqsa, u “Usuli jadid” metodikasini ishlab chiqqan va bu metodika xalq ta’limini yangilashga qaratilgan. U “Tarjimon” gazetasi orqali butun muslimmon dunyosida ma’rifatparvarlik va zamonaviy fikrlashni yoyishga harakat qilgan. G‘aspirali ta’limda dunyoviy fanlarni o‘rganishni zarur deb bilgan va yangi usuldagi maktablar ochishni taklif qilgan. U “Usuli jadid” deb nomlangan ta’lim metodikasida an’naviy ta’lim uslubini yengib o‘tish, yangi o‘qish dasturlarini joriy etish, pedagogikaga yangicha yondashuvlarni rivojlantirishga chaqirgan. Bu usul o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarda yangi ta’lim tizimini yaratishga asos bo‘lgan. G‘aspirali o‘zining fikrlarida milliy birlikni, til birligini va ma’rifatni targ‘ib qilgan. U “*Til, tafakkur, ish – birligi*” g‘oyasini ilgari surib, xalq ma’rifatini rivojlantirishga chaqirgan. Uning asosiy maqsadi muslimmon xalqlari o‘rtasida ilm-fan, ma’rifat va zamonaviy tafakkurni rivojlantirish edi. Uning ilmiy ishlari, ayniqsa, Turkiy xalqlar birligi g‘oyasi hozirgi ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudi (1875–1919) — jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri, o‘zining adabiy va pedagogik ishlari bilan tanilgan. U yoshlarni savodli qilish, ularni ilmiy va ma’rifatli tarbiyalashga qaratilgan bir nechta maktablar va darsliklar yaratgan. “Padarkush” dramasi uning eng mashhur asaridir va bu asar orqali Behbudi jaholat va siyosiy nohaqlikni keskin tanqid qilgan. Behbudi o‘zining pedagogik faoliyatida inson huquqlari, tarbiya va axloqiy masalalarni oldinga surgan. Uning asarlarida ta’limning ahamiyatini, jamiyatni ilmga va ma’rifatga chaqirishni ko‘rish mumkin. Behbudi ta’limni xalqni jahon madaniyati va zamonaviy ilm bilan tanishtirishning muhim vositasi deb bilgan. Uning g‘oyalari, ayniqsa, ma’rifatparvarlik va huquqiy bilimlarni rivojlantirishga oid bo‘lgan qarashlari, o‘z vaqtida o‘rta asrlarning illatlarini yengib o‘tishga qaratilgan. 1903-yilda Samarqandda ilk jadid maktabini ochgan. O‘quv dasturiga matematika, tarix, geografiya, tabiiy fanlar va arab alifbosini o‘rgatish kirgan. U eski uslubdagi maktablar faqat diniy bilim berib, dunyoviy ilmlarni chetga surayotganini tanqid qilgan. Uning fikricha:

*“Agar millatni saqlamoqchi bo‘lsak, avvalo uning farzandlariga zamonaviy ilm berishimiz shart”* [9]. Bu fikr Behbudi qarashlarining asosiy mazmunini ifodalaydi. Uningcha, millatning taraqqiyoti va o‘zligini saqlab qolishi bevosita ta’limga bog‘liq. U faqat diniy bilim bilan cheklanib qolmay, zamonaviy fanlarni ham o‘rganish zarurligini ilgari surgan. Behbudi “zamonaviy ilm” deganda matematika, tarix, geografiya kabi fanlarni o‘zlashtirishni nazarda tutgan. Chunki faqat ilmli avlod millatni taraqqiyot sari yetaklay oladi. U jadid maktablarini

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

ochib, ta’lim islohotlarini amalga oshirishga harakat qilgan. Bugungi kunda ham ushbu fikr dolzarb. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarga ega bo‘lgan millatlar rivojlanadi, aks holda ular orqada qoladi. Shu bois, Behbudiy ta’kidlaganidek, yosh avlodga sifatli ta’lim berish millatning kelajagi uchun juda muhimdir.

Behbudiy 1913-yilda "Samarqand" gazetasini tashkil etgan, bu gazeta o‘zbek matbuotining eng muhim nashrlaridan biri bo‘ldi. "Samarqand" gazetasi orqali u xalqni siyosiy va ijtimoiy muammolar haqida fikrlashga undagan. Behbudiy jadidchilik harakatining muhim qismi san’at, ayniqsa teatr ekanligini tushungan. Shu sababli, u O‘zbekistonda birinchi marta milliy teatrni rivojlantirishga harakat qilgan. "Padarkush" (1911) – O‘zbek dramaturgiyasi tarixidagi birinchi drama. Ushbu asar jaholat va eski urf-odatlarning halokatli oqibatlarini ko‘rsatib, yoshlarni ilmga chorlaydi. Teatr orqali savodsizlik, qoloqlik va xurofotga qarshi kurashish mumkinligini ko‘rsatgan. Behbudiy shunday degan:

“O‘qimagan kishi — ko‘r odamdir.”

Uning bu g‘oyasi hozirgi ta’limdagi asosiy prinsip — umrbod o‘rganish tushunchasiga uyg‘un keladi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) – o‘zbek jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri, ma’rifatparvar, pedagog, shoir va dramaturg. U o‘z hayoti va ijodini xalqni ilm-ma’rifatga chorlashga, yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlagan. Avloniy millat taraqqiyotini ta’lim va axloq bilan bog‘lagan holda, yoshlarni komil inson sifatida voyaga yetkazish kerakligini ta’kidlagan. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari uning pedagogik va ma’rifiy qarashlarining eng yorqin namunasidir. Ushbu asarda u yoshlarni ilm olishga undash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish va milliy ongni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Asardagi ushbu fikrlari buning yaqqol isbotidir: “*Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofati dur. Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas bir fazilatdur*” [8]. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, ilm olish shunchaki o‘qish yoki yozish bilan cheklanib qolmaydi. Ilm insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, unga hayotning murakkab masalalarini tushunish va hal qilish imkonini beradi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI (LITERATURE REVIEW)**

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning ta’lim tizimining modernizatsiyasini ilgari surgan muhim ijtimoiy va madaniy harakat sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Jadidchilik harakatining ta’lim tizimidagi yangiliklari nafaqat pedagogik qarashlarni, balki jamiyatning siyosiy va madaniy hayotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ismoilbek G‘aspirali jadidchilik harakatining asosiy yetakchisi bo‘lib, o‘zining 1884-yilda boshlangan “Tarjimon” gazetasida ta’lim tizimini isloh qilishni maqsad qilgan. G‘aspirali o‘zining “Usul al-Madaniyya” (Madaniyat usuli) asarida ta’limni ilmiy va amaliy bilimlarga asoslash zarurligini ko‘rsatgan. Ushbu asar, o‘z davrida ilmiy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

asosiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan. G‘aspiralining bu g‘oyalari o‘zbek jamiyatining yangi ta’lim modeliga o‘tishida katta rol o‘ynagan.

Abdulla Avloniy esa, o‘zining “Turkiston” gazetasida milliy tilni saqlash va rivojlantirish, hamda o‘qitish metodlarini zamonaviylashtirish bora sidagi fikrlarini ilgari surgan. Avloniy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uchun pedagogik islohotlar zarurligini ta’kidladi va bu islohotlarning ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatdi. Avloniyning “Ma’rifat” gazetasida ta’limda yangiliklar, jumladan, maktablarning dars jadvali va o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish haqidagi maqolalari, uning g‘oyalarining keyingi avlodlarga ta’sirini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiya esa, “Qanoat” asarida ta’lim tizimi va uning jamiyatdagi rolini keng qamrovda tahlil etgan. Behbudiya, jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalarni amalga oshirishda, o‘z davrida ilmiy va amaliy bilimlarni birlashtirishga uringan. Ushbu asarda ta’limning jamiyatdagi roli va uning ijtimoiy hayotga ta’siri haqida keng fikrlar bildirilgan. Behbudiyning ta’limga oid qarashlari, o‘z davrida yangi maktablarning faoliyatini tashkil qilishda qo‘llanilgan. Jadidchilik harakatining ta’lim tizimiga ta’siri keng ko‘lamli tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jumaniyozov (2021) ning tadqiqotida jadidlarning pedagogik g‘oyalari nafaqat ta’lim tizimida, balki jamiyatda umumiylar islohotlar va o‘zgarishlarga olib kelganligi tahlil qilingan. Jumaniyozovning nazariy tahlili, jadidchilik harakati ta’lim tizimining modernizatsiyasi jarayonida qanday o‘zgarishlarni amalga oshirganligini ochib berdi.

### **METODOLOGIYA (METHODOLOGY)**

Tadqiqotda kontent tahlili va tarixiy tahlil metodlari asosida ishlangan. Jadidchilik harakatining ta’lim tizimidagi o‘rni va ta’siri haqida ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, sarlavha asosidagi tahlil metodini qo‘llash orqali har bir jadidning pedagogik qarashlari va ta’limga bo‘lgan yondashuvi o‘rganildi. Kontent tahlili orqali jadidlarning asosiy asarlari, maqolalari va gazetalarini tahlil qilindi. Bu metodologiya yordamida jadidchilik harakati va ta’limni zamonaviylashtirishga oid g‘oyalari va g‘oyalarning matbuotdagiga aks-sadosi o‘rganildi. Masalan, G‘aspiralining “Usul al-Madaniyya” asari, Avloniyning “Turkiston” gazetasidagi maqolalari va Behbudiyning “Qanoat” asaridagi pedagogik tamoyillar tadqiqotda asosiy ma’lumot manbalaridan bo‘lgan. Tarixiy tahlil metodologiyasi orqali jadidchilik harakatining tarixiy konteksti, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va ijtimoiy siyosiy ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi Markaziy Osiyo va O‘zbekiston ta’lim tizimining taraqqiyoti, bu davrda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari chuqr tahlil qilingan.

### **NATIJALAR (RESULTS)**

Jadidchilik harakatining ta’lim tizimidagi asosiy natijalari quyidagilar:

1. Zamonaviy ta’lim uslublari: Jadidlar ilmiy va amaliy bilimlarga asoslangan ta’limni targ‘ib qilishdi. Ismoilbek G‘aspirali o‘zining “Usul al-Madaniyya” asarida ilmiy ta’limning ahamiyatini ta’kidladi. Uning g‘oyalariga ko‘ra, ta’lim nafaqat diniy bilimlarni o‘rgatish, balki

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

zamonaviy fanlarni ham o‘rgatish zarur edi. Bu g‘oya, keyingi o‘n yilliklarda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning poydevori bo‘lib xizmat qildi.

2. Milliy til va madaniyatni rivojlantirish: Jadidchilik harakati milliy tilni va madaniyatni saqlash va rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat berdi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiston” gazetasida milliy

o‘zlikni saqlash va rivojlantirishni, milliy tilni o‘qitishning ahamiyatini keng targ‘ib etdi. Uning g‘oyalari O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy tilni rivojlantirishdagi asosiy qadamlarni belgilab berdi.

3. Qizlar ta’limi: Jadidchilik harakati qizlar ta’limiga katta e’tibor berdi. G‘aspirali va Avloniy, o‘z davrida qizlar ta’limining zarurligini ta’kidlab, ta’limda tenglikni ta’minlashga intildilar. Bu g‘oya hozirgi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar bilan uyg‘unlashadi.

### **MUHOKAMA (DISCUSSION)**

Jadidchilik harakatining ta’limga ta’siri hozirgi kunda aniq ko‘rinadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ilmiy va amaliy bilimlarni birlashtirish, erkin fikrlashni rivojlantirish, milliy tilni saqlash va ta’lim tizimining zamonaviy usullarini joriy etish kabi prinsiplar bugungi ta’lim tizimida o‘z ifodasini topgan. Bu g‘oyalar jadidchilik harakatining O‘zbekiston ta’lim tizimiga bo‘lgan ta’sirini yanada kuchaytirgan. Jadidchilik harakatining ta’lim tizimidagi ta’sirini yanada chuqurroq tahlil qilish orqali, ta’limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mustahkamlanishi va amaliy bilimlarni o‘rgatishdagi yondashuvlarning rivojlanishini o‘rganish kerak. Jadidlarning g‘oyalari bugungi kunda ham ijtimoiy adolat, gender tengligi va milliy madaniyatni rivojlantirish borasida muhim bo‘lib qolmoqda.

### **XULOSA (CONCLUSION)**

Jadidchilik harakati O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ularning ta’limga oid g‘oyalari, jumladan, ilmiy ta’limni targ‘ib qilish, amaliy bilimlarni o‘rgatish, milliy til va madaniyatni rivojlantirish, qizlar ta’limi kabi g‘oyalalar hozirgi ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosini tashkil etadi. Jadidchilik harakatining bugungi ta’lim tizimidagi o‘rni va ta’siri yanada chuqurroq tadqiq etilishi kerak. Kelajakdagi tadqiqotlar jadidchilik harakatining ilmiy merosini va uning pedagogik tamoyillarini amaliyatga tatbiq etish yo‘llarini o‘rganishga qaratilishi zarur.

Shu bilan birga, jadidchilik harakatining pedagogik merosi hozirgi kunda ham dolzarb. Bugungi ta’lim tizimi, jadidlarning ilmiy va pedagogik g‘oyalara asoslanib, nafaqat o‘quvchilarni bilim bilan ta’minlash, balki ularga erkin fikrlashni o‘rgatish, jamiyatda mustahkam o‘rnak bo‘lishlarini ta’minlashni maqsad qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiy o‘sishi va madaniy farovonligini oshiradi.

Jadidchilik harakatining pedagogik tamoyillari hozirgi ta’lim tizimiga tatbiq etilishi orqali, yoshlarni nafaqat an‘anaviy bilimlarga ega bo‘lishiga, balki ular o‘zining shaxsiy fikrini bildirish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishiga yordam beradi. Bugungi ta’lim

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

tizimida o‘quvchilarni jamiyatning faol fuqarolari sifatida tarbiyalash, ularni ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish, aynan jadidchilik harakatining merosini davom ettirishdir.

Kelajakdagi tadqiqotlar, jadidchilik harakatining ilmiy merosini o‘rganish va uning pedagogik tamoyillarini amaliyatga tatbiq etishning yangi usullarini topishga qaratilishi zarur. O‘zbekiston ta’lim tizimi, jadidchilik harakatining g‘oyalarini amaliyatga tatbiq etishning yanada samarali yo‘llarini izlashga davom etishi lozim. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar orqali jadidchilik harakatining milliy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini to‘liq aniqlash, kelajakda ta’limni yanada rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 96 b.
- 2.. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T. “Universitet”, 2006.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999
4. Jadidchilik harakati tarixi va ta’siri. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2016.
6. Jumaniyozov, Shuhrat. Jadidchilarning ma’rifatparvarlik harakati va uning yangi renessans poydevorini barpo etishdagi o‘rni. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2023. Uslubiy qo‘llanma.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. 280 b.
8. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyandalari: M. Behbudiy va boshq. Toshkent: Yangi asr avlod, 2020. 192 b. 62-bet.
9. Pedagogika tarixi. O. Hasanboyeva, J. Hasanboyeva, H. Hamidov. Toshkent: G. G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b. 82-118-213-betlar.